

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 29- apreldagi
“62”– son buyrug‘iga
ILOVA

**Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat
turi va korxona turini yillik statistika hisobotlari ma’lumotlari
asosida o‘zgarganligi to‘g‘risidagi xabarnomani
avtomatlashtirilgan holda yuborish bo‘yicha
TARTIB**

“Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turini yillik statistika hisobotlari ma’lumotlari asosida o‘zgarganligi to‘g‘risidagi xabarnomani avtomatlashtirilgan holda yuborish bo‘yicha tartib” (keyingi o‘rinlarda – tartib) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o‘rinlarda-GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan hamda statistika organlari tomonidan asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turi o‘zgarganligi to‘g‘risidagi xabarnomani tadbirkorlik subyektlariga avtomatlashtirilgan holda yetkazish jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu tartib quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi:
statistika organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro axborot almashishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy usullarini joriy etish;

tadbirkorlik subyektlariga avtomatlashtirilgan tizim asosida ularning asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turi (mikrofirma, kichik, boshqa) to‘g‘risida o‘z vaqtida xabar berishni tashkil etish.

Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

iqtisodiy faoliyat turi – moddiy resurslar, uskunalar, mehnat, texnologiyalar vositasida bir turdagi mahsulotlar (tovarlar yoki xizmatlar) to‘plamini hosil bo‘lishi jarayoni;

korxona turi – korxonaning mulkchilik shaklidan qat’i nazar unda ishlovchi xodimlar soniga qarab kichik tadbirkorlik subyekt yoki boshqa toifalarga ajratilishi;

tarmoq boshqarmasi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o‘rinlarda – Statistika agentligi) markaziy apparatining statistika hisoboti shakli bo‘yicha axborotlarni shakllantirishga mas’ul bo‘lgan boshqarmasi.

2-bob. Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turini aniqlash hamda ularga xabarnoma yuborish

1-§. Yillik statistika hisobotlari ma’lumotlari asosida avtomatlashtirilgan holda asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turini aniqlash

2. Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turini aniqlash O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining “Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va yillik o‘rtacha xodimlari soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yangilash reglamenti” talablari bo‘yicha tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilgan 1 kb shakli (yillik) statistik hisobot shakli ma’lumotlari asosida, eStat avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

3. Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi boshqarmasi Statistika agentligi markaziy apparatining tarmoq boshqarmalari bilan kelishgan holda har yili 1- dekabrqa qadar asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turini aniqlash texnik shartlarini quyida keltirilgan tartibda ishlab chiqadi.

Korxonalarning asosiy faoliyat turini aniqlashda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

dastlab, korxona tomonidan o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) hajmi asosiy satrlardagi ko‘rsatkichlarni qo‘shish orqali hisoblanadi. Ya’ni:

o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) hajmi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ishlar, xizmatlar);
- dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish;
- o‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash;
- baliq ovlash va akvakultura;
- amaldagi narxlarda o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi;
- qurilish obyektlarini sotish qiymati;
- jami xizmatlar.

Navbatdagi bosqichda, agar korxona O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2003-yil 24-yanvar 1209-son bilan ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrda 140-son buyrug'iga 7-ilova bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalar"ga asosan, asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar tarkibida bo'lgan faoliyatlar hisobotning 4.4 - bo'limida kodlashtirilgan bo'lsa va hisobotda boshqa daromadlar tarkibi ko'rsatilgan bo'lsa, ularning qiymati jami yig'indidan chegirib tashlanadi. Ya'ni:

o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) hajmi – (Asosiy faoliyatga kiritilmagan boshqa faoliyatdan olingan daromadlar);

1 kb shakli (yillik) hisobot shaklidagi tegishli satrlar o'zgarganda, ushbu ko'rsatkichlar nomidan kelib chiqib mos satrlar tanlanadi;

shundan keyin, har bir tarmoqning jami yig'indiga nisbatan ulushlari hisoblanadi, Masalan:

sanoat = (amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ishlar, xizmatlar)) / (O'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) hajmi – (Asosiy faoliyatga kiritilmagan boshqa faoliyatdan olingan daromadlar))*100

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi = (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi) / (O'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) hajmi – (Asosiy faoliyatga kiritilmagan boshqa faoliyatdan olingan daromadlar))*100

qurilish = (amaldagi narxda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi / (O'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) hajmi – (Asosiy faoliyatga kiritilmagan boshqa faoliyatdan olingan daromadlar))*100

xizmat ko'rsatish = ((Xizmat ko'rsatish) – (asosiy faoliyatga kiritilmagan boshqa faoliyatdan olingan daromadlar)) / (O'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) hajmi – (Asosiy faoliyatga kiritilmagan boshqa faoliyatdan olingan daromadlar))*100

Jami hisoblangan hajmga nisbatan eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoq ko'rsatkichi, korxonaning tegishli davr uchun asosiy faoliyat turi sifatida ushbu yo'nalishlardan biri belgilanishini anglatadi.

Masalan, eng katta ulushni aniqlash uchun – foiz ko'rinishida hosil bo'lgan har bir sohadagi ishlab chiqarish hajmlari bir biriga solishtirilib eng yuqori tarmoq tanlab olinadi.

Shunga ko'ra, aniqlangan eng katta ulushga ega tarmoq ichidan eng katta iqtisodiy faoliyat turi aniqlanadi.

Bunda, ushbu tegishli bo'limdan eng yuqori ulushga ega bo'lgan, hisobotning aynan shu bo'limdagi mahsulotlarning (tovarlar, ishlar va xizmatlar) statistik tasniflagichi (keyingi o'rinlarda MST deb ataladi) kodlari bo'yicha eng

yuqori ulushdagi mahsulot (ish va xizmat) kodiga mos Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda IFUT deb ataladi) kodi tanlanadi.

$$n_1 + n_2 + n_3 + \dots + n_n = \Sigma$$

bunda,

n – MST kodlari bo‘yicha aks ettirilgan ko‘rsatkich qiymati;

Σ – MST kodlari bo‘yicha aks ettirilgan ko‘rsatkichlar yig‘indisi.

Har bir mahsulot (ish va xizmat)ning Σ jami yig‘indidagi ulushlari mos ravishda aniqlanadi hamda eng katta ulushga ega iqtisodiy faoliyat turi (IFUT) kodi belgilanadi.

MST kodlari orqali IFUT kodini aniqlash, tarmoq boshqarmalari ishlab chiqqan o‘tish kalitlari orqali amalga oshiriladi. Masalan, sanoat yo‘nalishida 107111 MST kodiga 10710 IFUT kodini tanlash va hakoza.

Shuningdek, o‘zgargan asosiy iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha korxona tomonidan hisobotda ko‘rsatilgan xodimlarning o‘rtacha yillik sonidan kelib chiqib, korxonaning turi aniqlanadi.

Korxonalar turini aniqlash o‘rtacha yillik xodimlar sonidan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275-son qarori bilan tasdiqlangan Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan tashkilotlar tasniflagichiga muvofiq aniqlanadi.

Bunda, O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida berilgan imtiyoz inobatga olinadi va korxonaning umumiy o‘rtacha yillik xodimlar sonidan kollejlarning, akademik litseylarning hamda oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining o‘rtacha yillik soni chegirib tashlanadi.

Ushbu imtiyoz, kollejlarning, akademik litseylarning hamda oliy ta‘lim muassasalarining bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalari tuzilgan taqdirda, band bo‘lgan xodimlarning belgilangan o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 50 foizdan oshgan qismiga hamda o‘qishni tugallagan kunidan boshlab ko‘pi bilan uch yil o‘tgan bo‘lsa qo‘llanilmaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 15-maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1112-son qarori asosida kichik korxona o‘z uylarida ishlayotgan (kasanachilik bilan shug‘ullanayotgan) fuqarolar bilan, qonun hujjatlarida belgilangan xodimlar sonining cheklangan normatividan ko‘pi bilan 30 foizdan oshgan miqdorda mehnat shartnomalari tuzganda, kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan kafolatlar, imtiyozlar va preferensiyalar mazkur korxona uchun saqlanib qoladi.

Bunda:

kasanachilar soni (102 satr) hisobot bo'yicha aniqlangan IFUT kodi bo'yicha (VM-275 son qaror ilovasi) ishchilar soni oxirgi chegarasining 30% idan oshmasa hamda kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarini bitirganlarning yillik o'rtacha soni (146-satr) 50% dan oshmasa, o'rtacha yillik xodimlar sonidan (150-satr) to'liq chegiriladi;

kasanachilar soni (102 satr) hisobot bo'yicha aniqlangan IFUT kodi bo'yicha (VM-275 son qaror ilovasi) xodimlar soni oxirgi chegarasining 30%idan oshsa hamda kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarini bitirganlarning yillik o'rtacha soni (146-satr) 50% dan oshsa, oshgan qismi o'rtacha yillik xodimlar sonidan (150-satr) chegirilmaydi.

Bundan tashqari, umumiy ovqatlanish korxonalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-iyuldagi "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun aholi, tadbirkorlik subyektlari, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6029-son Farmoni asosida yillik o'rtacha xodimlar soni 50 nafargacha ruxsat etilgani inobatga olinadi.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi:

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi boshqarmasi tomonidan tayyorlangan texnik shartlar asosida har yili 1-yanvarga qadar asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turini STATA dasturida avtomatlashtirilgan tarzda aniqlash mexanizmini ishlab chiqadi;

ishlab chiqilgan dasturni har yili tadbirkorlik subyektlariga inson omilisiz tushunarli bo'lishini nazarda tutgan holda axborot beruvchi materiallar bilan boyitib, takomillashtirib boradi.

5. Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi boshqarmasi, har kuni **qabul qilingan** hisobotlarga asosan:

avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali asosiy iqtisodiy faoliyat turi o'zgartirilgan tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini tegishli tarmoq boshqarmalariga;

xodimlarning yillik o'rtacha soni to'g'risidagi ma'lumotlarni Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasiga taqdim etib boradi.

Bunda, tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini tarmoq boshqarmalariga taqdim etish, 1 kb yillik statistika hisobotining qayta ishlash muddati tugagunga qadar davom ettiriladi.

6. Tarmoq boshqarmalari tomonidan hisobotni qayta ishlash muddati tugagunga qadar **har kuni**:

eStat avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan aniqlangan iqtisodiy faoliyat turlarining to'g'ri yoki noto'g'ri amalga oshirilganligi tekshirib chiqiladi;

ma'lumotlarda nomuvofiqliklar aniqlanganda, ularga tuzatish va o'zgartirish kiritish choralari ko'riladi;

aniqlik kiritilgan ro'yxat Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasiga taqdim etiladi.

7. Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi, **bir ish kuni muddatida**, tarmoq boshqarmalaridan hamda Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi boshqarmasidan olingan ro'yxat asosida Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registriga (bundan keyin matnda KTYADR deb yuritiladi) tegishli o'zgartirishlar kiritadi.

2-§. Tadbirkorlik subyektlariga asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turi o'zgarganligi to'g'risidagi xabarnomani yuborish

8. Hisobot qabul qilish jarayonida tadbirkorlik subyekting IFUT kodi, shuningdek, asosiy iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha tadbirkorlik subyekti tomonidan hisobotda ko'rsatilgan xodimlarning o'rtacha yillik sonidan kelib chiqib, korxonaning turi o'zgarganda, avtomatlashtirilgan holda o'zgartirilganda, eStat avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali unga:

“Siz tomoningizdan tegishli yil yakunlari bo'yicha topshirilgan statistika hisobotlariga asosan, korxonangizga tegishli asosiy faoliyat turi kodi, xodimlarning o'rtacha yillik soni va kichik tadbirkorlik subyektiga mansubligi quyidagicha hisobga olindi:

taqdim etilgan hisobotga asosan IFUT kodi – **“IFUT kodi”** – **“IFUT kodi nomi”**;

xodimlarning o'rtacha yillik soni – **“xodimlar soni”**;

kichik tadbirkorlik subyektiga mansubligi – **“mansub”** yoki **“mansub emas”**.

Ushbu o'zgarishlar bo'yicha nomuvofiqliklar kuzatilgan taqdirda, statistika organlariga murojaat qilishingiz so'raladi.

Rus tilida esa quyidagicha:

“На основании представленной годовой статистической отчетности, определён код основного вида экономической деятельности, среднегодовая численность работников и отнесение предприятия к субъектам малого предпринимательства:

Код ОКЭД согласно представленной отчётности – **код ОКЭД – название ОКЭД**;

Среднегодовая численность работников – **численность работников**;

Принадлежность к субъектам малого предпринимательства – **относится или не относится**.

В случае выявления несоответствий в данных изменениях, просим обратиться в органы статистики”.

Barcha xabarlar o'zbek va rus tillarida e'lon qilinadi.

9. Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi boshqarmasi hisobot qabul qilish jarayonida tadbirkorlik subyektlariga ularning asosiy faoliyat turi va korxona turining o'zgarganligi to'g'risida eStat avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali xabar berilishini nazorat qilib boradi.

10. **Hisobot davrida kunlik** asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turi o'zgargan tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini:

Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasiga Statistika agentligining rasmiy sayti orqali ularning shaxsiy kabinetiga xabarnoma jo'natish uchun taqdim etadi.

11. **Hisobot davrida kunlik** asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turi o'zgarigan tadbirkorlik subyektlariga:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi, Statistika agentligining rasmiy sayti orqali shaxsiy kabinetiga tegishli xabarnomani joylashtiradi.

12. Tadbirkorlik subyekting shaxsiy kabinetiga xabarnoma:

“Siz tomoningizdan tegishli hisobot yili yakunlari bo'yicha topshirilgan statistika hisobotlariga asosan, korxonangizga tegishli asosiy faoliyat turi kodi, xodimlarning o'rtacha yillik soni va kichik tadbirkorlik subyektiga mansubligi quyidagicha hisobga olindi:

taqdim etilgan hisobotga asosan IFUT kodi – **“IFUT kodi”** – **“IFUT kodi nomi”**;

xodimlarning o'rtacha yillik soni – **“xodimlar soni”**;

kichik tadbirkorlik subyektiga mansubligi – **“mansub”** yoki **“mansub emas”**.

Ushbu o'zgarishlar bo'yicha nomuvofiqliklar kuzatilgan taqdirda, statistika organlariga murojaat qilishingiz so'raladi.”

Rus tilida esa quyidagicha:

На основании представленной годовой статистической отчетности, определён код основного вида экономической деятельности, среднегодовая численность работников и отнесение предприятия к субъектам малого предпринимательства:

Код ОКЭД согласно представленной отчётности – **код ОКЭД – название ОКЭД**;

Среднегодовая численность работников – **численность работников**;

Принадлежность к субъектам малого предпринимательства – **относится или не относится**.

В случае выявления несоответствий в данных изменениях, просим обратиться в органы статистики.

Barcha xabarlar o'zbek va rus tillarida e'lon qilinadi.

3- bob. Yakuniy qoidalar.

13. Mazkur tartibni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turini yillik statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida o'zgarganligi to'g'risidagi xabarnomani avtomatlashtirilgan holda yuborish
SXEMASI

Bosqichlar	Vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Muddati	Mas'ullar
I bosqich	Texnik shartlarini ishlab chiqish	Statistika Agentligi markaziy apparati tarmoq boshqarmalari bilan kelishilgan holda asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turini aniqlash texnik shartlari ishlab chiqish	1 ish kuni	Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi boshqarmasi
II bosqich	Asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turini avtomatlashtirilgan tarzda aniqlash dasturini ishlab chiqish	Tayyorlangan texnik shartlar asosida asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turini avtomatlashtirilgan tarzda aniqlash dasturini ishlab chiqish	1 ish kuni	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi
III bosqich	Hisobot qabul qilish jarayonida tadbirkorlik subyektlarni xabardor qilish	Tadbirkorlik subyektining IFUT kodi, shuningdek, asosiy iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha tadbirkorlik subyekti tomonidan hisobotda ko'rsatilgan xodimlarning o'rtacha yillik sonidan kelib chiqib, korxonaning turi o'zgarganda avtomatlashtirilgan holda, eStat avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali unga xabar berilishini nazoratga olish	Hisobot qabul qilish jarayonida	Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi boshqarmasi
IV bosqich	Asosiy iqtisodiy faoliyat turi o'zgartirilgan tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini va xodimlarning yillik o'rtacha soni to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish	Avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali asosiy iqtisodiy faoliyat turi o'zgartirilgan tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini tegishli tarmoq boshqarmalariga qayta ko'rib chiqish uchun yetkazish; Xodimlarning yillik o'rtacha soni to'g'risidagi ma'lumotlarni Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasiga taqdim etish	Hisobot davrida har kuni qayta ishlash davri tugagunga qadar	Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi boshqarmasi
V bosqich	Asosiy iqtisodiy faoliyat turi o'zgartirilgan tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini qayta ko'rib chiqish	eStat avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan aniqlangan iqtisodiy faoliyat turlarining to'g'ri yoki noto'g'ri amalga oshirilganligi tekshirib chiqiladi, ma'lumotlarda nomuvofiqliklar aniqlanganda, ularga tuzatish va o'zgartirish kiritish choralari ko'rish	Hisobot davrida har kuni qayta ishlash davri tugagunga qadar	Tarmoq boshqarmalari
VI bosqich	Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registriga tegishli o'zgartirishlar kiritish	Tarmoq boshqarmalaridan hamda Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi boshqarmasidan olingan ro'yxat asosida, Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registriga tegishli o'zgartirishlar kiritish	Hisobot davrida har kuni qayta ishlash davri tugagunga qadar	Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi
VII bosqich	Asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turi o'zgargan tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini rasmiy saytda e'lon qilish uchun tayyorlash	Asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turi o'zgargan tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti orqali ularning shaxsiy kabinetiga xabarnoma jo'natish uchun tayyorlash	Hisobot davrida har kuni qayta ishlash davri tugagunga qadar	Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi
VIII bosqich	Tadbirkorlik subyektlarini shaxsiy kabinetiga tegishli xabarnomani joylashtirish	Asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turi o'zgargan tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti orqali ularning shaxsiy kabinetiga xabarnoma jo'natish	Hisobot davrida har kuni qayta ishlash davri tugagunga qadar	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi